

DRAMATIK ASARLARDA TIL VA MADANIYAT OMILLARINING VOQELANISHI

Xursanov Nurislom Iskandarovich,
Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Renessans ta'lim universiteti
E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5714-2745

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18099154>

Annotatsiya: So'nggi yillarda xorij va o'zbek tilshunoslari ilmiy izlanishlarda zamonaviy lingvistikaning tadqiq yo'nalishlaridan biri – diskurs tahliliga turli jihatdan yondashish, matn tahlili jarayonida lisoniy omillar bilan birga nolisoniy birliklarni ham hisobga olish kerakligi bot-bot ta'kidlanmoqda. Zotan, dramatik asarlarni diskursiv o'rganish, dramalar personajlari tilining nutqiy xoslanishi, muloqot jarayonida adresant va adresatning bir-birini tushunishi, muloqotdan tashqari tinglovchilarning interpretatsion qobiliyati hamda ushbu zanjirni bog'lab turadigan tilshunoslikdagi nutq akti nazariyasi bugungi kunda tilshunoslikda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Kalit so'zlar: diskurs, matn tahlili, ijtimoiy factor, nutqiy xulq-atvor, til, madaniyat.

Abstract: In recent years, foreign and Uzbek linguists have repeatedly emphasized in their scientific research that one of the research directions of modern linguistics is a different approach to discourse analysis, taking into account non-linguistic units along with linguistic factors in the process of text analysis. Indeed, the discursive study of dramatic works, the speech characterization of the language of drama characters, the mutual understanding of the addressee and the addressee in the process of communication, the interpretive ability of listeners outside of communication, and the theory of speech act in linguistics, which connects this chain, have become one of the most pressing issues in linguistics today.

Keywords: discourse, text analysis, social factor, speech behavior, language, culture.

Аннотация: В последние годы в научных исследованиях зарубежных и узбекских лингвистов неоднократно подчеркивается, что одним из направлений исследования современной лингвистики является подход к дискурсивному анализу с разных сторон, необходимо учитывать нелингвистические единицы наряду с лингвистическими факторами в процессе анализа текста. Действительно, дискурсивное изучение драматических произведений, речевая специфика языка персонажей драм, взаимопонимание адресанта и адресата в процессе общения, интерпретационная способность слушателей вне общения, а также теория речевого акта в лингвистике, связывающая эту цепочку, сегодня стали одними из актуальных вопросов в лингвистике.

Keywords: discourse, text analysis, social factor, speech behavior, language, culture.

Kirish. Olam haqida berilgan umumiy fikrlarni har doim ham barchamiz birdek tushuna olmaymiz. Binobarin, ingliz tili kundalik muloqotida ishlatiladigan ibora va jumlar suhbatdoshlar tomonidan turli kontekstlarda qabul qilinadi. Misol uchun, “I’ll kick your face in (- to kick ones face in – *qattiq ogohlantirish, qattiq jazo berish*)” kabi iboralarni muloqot qatnashchilari tomonidan o‘z ma’no va mazmunida tushunish mumkin.

Madaniy makon – uning vakillari ongida madaniyatning mavjudligi shaklidir. Madaniy makon kognitiv makon (individual va jamoaviy) bilan bog‘liq, chunki u ma’lum bir madaniy-milliy hamjamiyat barcha vakillarining individual va jamoaviy makonlari

yig'indisi tomonidan shakllanadi. Masalan, rus madaniy makoni, ingliz madaniy makoni va h.

Adabiyotlar tahlili. Lingvokulturologik tadqiqotlar ko'lamining ortishi sohaning tadqiqot obyekti va tahlil chegaralarining ham kengayishiga sabab bo'ldi. Endilikda aytish mumkinki, lingvokulturologiya zamonaviy tilshunoslikning eng zarur va dolzarb tarmoqlaridan biriga aylandi. Soha rivoji, o'z navbatida, yangi tadqiq qirralarining yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi (Xususan, qiyosiy lingvokulturologiya[1], pedagogik lingvokulturologiya[2] va amaliy lingvokulturologiya).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sifatli (qualitative) yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot jarayonida dramatik asarlar diskursiv tahlil metodi asosida o'rganilib, lingvokulturologik, pragmatik va kognitiv yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Lingvokulturologik birliklar dastlab bitta semiotik tizimga – tilga tegishli bo'lmasdan, balki madaniyatning turli bo'limlarida: miflar, marosimlar, xurofotlar, stereotiplar, nutqiy xulq-atvor va hokazolarda mujassam bo'lishi muhim. Yangi "madaniy va lingvistik xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan" fan sifatida lingvokulturologiya uni tashkil etuvchi ikki fan – tilshunoslik va madaniyatshunoslik jamlanmasini shakllantirish muammosi bilan duch keladi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa, o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi[2]. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, presedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Lingvomadaniy muhitda turli xil tushunchalar mavjud. Ana shunday har xil turdagi tushunchalarni ifodalashning bir qancha vositalari mavjud: leksik, frazeologik, paremiologik, sinonimik va h. Kognitiv lingvistikaning jadal rivojlanishi nazariya darajasida tushuncha tipologiyasini o'rganish bilan bir qatorda kognitiv hodisalarning shakllanishiga hissa qo'shadigan og'zaki turlarni aniqlashga qaratilgan. Tushunchalar tipologiyasi o'z imkoniyatlari doirasida fikr birliklarini ajratib ko'rsatadi. A.P. Babushkin ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlarida sezilarli yutuqlarga erishib, tushunchalar turlarining chegaralarini aniqladi.

N.N. Boldirev Babushkin nazariyasini birmuncha kengaytirib, bu borada tasvirlar, sxemalar, tushunchalar, prototiplar, takliflar, ramkalar, ssenariylar yoki skriptlar kabi hodisalarga alohida to'xtaldi[4].

Lingvokulturologik birliklar tahlilida lakunalar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan "bo'sh joy", "bo'shliq" deb ataladigan lakunalar bir madaniyatda mavjud bo'lgan, ammo turli xil ijtimoiy urf-odatlar, e'tiqodlar, mafkura, geografik xususiyatlar tufayli ekvivalentini boshqa madaniyatda topib bo'lmaydigan noyob madaniy yoki til hodisalari sifatida ta'riflanadi.

"Lakuna" tushunchasi birinchi marta 1950-yillarda amerikalik tilshunos Charks Xokett tomonidan taklif qilingan, u ikki tilning grammatik naqshlarini solishtirganda til hodisasini tasvirlash uchun "naqshlardagi tasodifiy bo'shliqlar" dan foydalangan. Lakuna bo'yicha boshqa tadqiqotlar, asosan, Lado (1957)[5], Susan Bassnett, Andre Lefevere (2001), Tian Huaye (2012)[6] kabi olimlarning madaniy so'zlar, leksik bo'shliq va madaniy tarjima muammolariga qaratilgan ishlari bilan bog'liq. Lakunalarning paydo bo'lishi va qo'llanilishini bir necha faktorlar bilan aloqador bo'lishi mumkin:

1. Geografik joylashuv bo'yicha:

Bu faktor turli madaniy qatlamga mansub etnoslarni alohida guruhlash imkonini beradi, ya'ni geografik joylashuv ham muayyan lakunalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Xususan, o'zbek dramatik kontekstida qaynona qo'lidagi maxsus to'qilgan, qubba bilan ishlangan yelpig'ich salqinlanish va o'zining oiladagi o'rnini hamda mavqeyi yuqoriligini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ingliz dramatik kontekstida esa, maxsus ayollar yelpig'ichlari dimog'dorlik, oliy nasablikni ifodalaydi.

2. Diniy e'tiqodga ko'ra:

Geografik hudud qahramonning jismoniy xususiyatlariga taalluqli bo'lsa, din madaniyatning ma'naviy tomoniga ishora qiladi. Diniy e'tiqodlardagi farqlar odamlarning qadriyatlariga, hayotga bo'lgan munosabatiga va hatto turmush tarziga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, buddist o'z "reinkarnatsiyon" (insonning biologik o'limidan so'ng, yangi tanada, masalan, hayvon tanasida yangi hayotni boshlaydi degan tushuncha) g'oyasi bilan abadiylikka ishonadi.


O'zbek dramatik kontekstida diniy lakuna "*is chiqarish*", "*ko'ksiga tuf-tuflash*", "*sadaqaning baloni qaytarishiga ishonish*" kabi holatlarda kuzatilsa, ingliz dramatik kontekstida, asosan, cherkov qo'ng'iroqlarining chalinishi biror ishni boshlash yoki yakunlash ishorasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu ta'kidlangan lakunalar boshqa madaniyatlarda uchramaydi. Binobarin, e'tiqodlar kesishuvi doirasida ba'zan musulmon, xristianlar orasida umumiyliklar ham kelib chiqadi.

3. Ijtimoiy faktorlar.

Bir madaniyatga ixtisoslashgan odat odamlarning turmush tarzi bilan bevosita bog'liqki, bu ma'lum bir jamiyatda o'zini tutish usuli bo'lgan odatiy harakatlarni anglatadi. Odatda, turli sohalardagi turfa xil odatlar, quyidagi misolda ko'rsatilgandek, madaniyatlara aloqa to'siqlarining manbayi hisoblanadi:

“Amerikalik filippinlik hamkasbini kechki ovqatga taklif qilmoqda. Filippinlik xushmuomalalik bilan taklifni rad etadi. Amerikalik xafa bo‘lib, filippinlik do‘stona munosabatda bo‘lishni xohlamasligini his qiladi. Biroq filippinlik ham xafa bo‘lib, taklif chin dildan berilmagan degan xulosaga keladi, chunki filippincha odatga ko‘ra, taklif qabul qilinishidan oldin bir necha marta berilishi kutiladi. Bunday holda filippinliklarning taklifni qabul qilsihdan oldin bir necha marotaba rad etishi lakuna bo‘lib, bu noto‘g‘ri tushunishga olib keladi.”

Dramatik diskursda lingvokulturologik hodisalarning voqelanishida olimlar tomonidan turli modellar ishlab chiqilgan. Ulardan biri Patrik Pavisning “hourglass” modelidir (qum soat modeli) (Qarang: 1-rasm):



1 - rasm. Dramatik diskursda til va madaniyat munosabati borasida Patrik Pavisning “hourglass” modeli

Patris Pavisning 1996-yildagi madaniyatlararo teatr nazariyasi, “qum soati” modeli, madaniyatlararo teatr spektaklida manba madaniyati (qum soatining yuqori qismi) pastga qarab maqsadli madaniyat(pastki qism)ga tushishini bildiradi. Bu yerda “manba madaniyati” maqsadli auditoriya uchun notanish madaniyatni anglatadi. Maqsadli auditoriya “maqsadli madaniyat” a’zolaridan iborat. Manba madaniyati maqsadli auditoriyaga qarab harakatlanar ekan, u bir nechta filtrlardan o’tadi, shu jumladan, “antropologik kodifikatsiya”, adaptorlar nuqtayi nazari, aktyorlarning tayyorgarlik ishlari va teatr shaklini tanlash ham shunga muvofiq tuziladi.

Inson aql-zakovatini, xuddi insonning o‘zi kabi, tildan tashqarida va lingvistik qobiliyatni nutqni yaratish hamda idrok etish imkoniyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi. Shaxs tomonidan yaratilgan matn inson tafakkurining harakatini aks ettiradi, mumkin bo‘lgan dunyolarni quradi, fikrlash dinamikasini va uni til yordamida ifodalash usullarini qamrab oladi.

V.N.Telia ta’kidlaganidek, antroposentrik aparadigma “tildagi madaniy va insondagi lingvistik omilga” qaratilishi lozim. Binobarin, lingvokulturologiya tilshunoslikdagi so‘nggi o‘n yilliklarda rivojlanib borayotgan antroposentrik paradigmaning mahsulidir. Lingvokulturologiya tilni madaniy hodisa sifatida o‘rganadiki, zotan, tilshunoslik madaniy-tarixiy mazmun bilan singib ketgan, chunki uning predmeti madaniyatning sharti, asosi va mahsuli bo‘lgan tildir.

V.N.Telia lingvomadaniy tavsif uchun makrokomponent modelini taklif qildi. Ushbu modelning yetti o‘lchovli makoniga presuppozitsiya, denotatsiya, ratsional baholash, belgining motivatsion asoslari, hissiy va emotsional baholashlar, shuningdek belgidan foydalanish shartlarini baholash kabi ma’lumotlar bloklari kiritdi[7].

Makrokomponent modelidan tashqari, biz lingvomadaniy tavsifda psixomadaniy eksperimentdan faol foydalanishni, shuningdek, har xil turdagi tayyor matnlardan kengroq foydalanishni taklif qilamiz, chunki til birliklarida madaniy ma’lumotlar asosan yashirin tabiatga ega. Lingvomadaniyat obyekti fonida uning bir nechta subyektlarini ajratib ko‘rsatish mumkin va ularning har biri alohida til va madaniy birliklardan iborat. Bular, avvalo, quyidagilardir:

- 1) madaniy tilshunoslikning predmeti ekvivalent bo‘lmagan lug‘at va lakunalar bo‘lib, ular madaniy tilshunoslikning tarkibiy qismi hisoblanadi;
- 2) mifologiklashtirilgan til birliklari: tilda mustahkamlangan arxetip va mifologemalar, marosim va e’tiqodlar va urf-odatlar nomlari;
- 3) tilning paremiologik fondi;
- 4) tilning frazeologik fondi;
- 5) standartlar, stereotiplar, belgilar;
- 6) tilning metafora va obrazli ifodalari;
- 7) tilning stilistik tuzilishi;
- 7) nutqiy xulq-atvor;
- 9) nutq odobi sohasi.

Boshqa janrlardan farqli ravishda dramatik asarlarda madaniy fenomenlarni aniqlash birmuncha murakkab. Biiroq xatti-harakatlar, nutq, faoliyat turlari muayyan madaniy belgilarni aniqlashga imkon beradi. Madaniy semalar semantik birliklar, semantik xususiyatlari jihatdan so‘zlarga qaraganda kichikroq va universaldir. Masalan, dramalar tahlilida aynan o‘zbek madaniy fenomenini ifodalovchi quyidagi madaniy semalar faol qo‘llaniladi: “so‘ri”, “peshayvon hovli”, “obdasta”, “o‘choq”, “o‘rgilay” va h. Ingliz

madaniyatiga xos bo'lgan quyidagi semalarni alohida ajratib ko'rsatish o'rinli: “*a little mind*”, “*mean spirited*”, “*dear*”, “*privacy*”, “*personal autonomy*”, “*fairness*”.

Madaniy meros – madaniyat uchun muhim bo'lgan madaniy qadriyatlar, tegishli ma'lumotlar va o'garmas holatlarni avloddan avlodga uzatishdir. U uzoq yillardan buyon yetib kelgan va an'anaga aylangan holatlarni nazarda tutadi va boshqa birliklar qatorida, asosan, frazeologik birliklar, metaforalar orqali ham ifodalanadi:

QO'CHQOR *Kenroying onasinikida. Ketib qoldi... Xotin — jaf, Olimtoy! yechsangiz-chi! Kechadan beri onamni Uchqo'rg'ondan ko'rdim!” (Sh. Boshbekov. Temir xotin.)*

“*Xotin-jaf*”, “*onamni Uchqo'rg'ondan ko'rdim*” kabi yuqorida zikr qilingan jummlar milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lib, bu faqat o'sha suhbat kontekstida paydo bo'lib qolgani yo'q, balki uzoq yillar davomida paydo bo'lgan ifodalardir.

Qarg'ish – ayollarning g'azablangan holatini ifoda etuvchi tipik vositalardan biri. Zotan, g'azablanish, g'azab otiga minish yoki salbiy qahramon portretini yaratishda qarg'ishdan keng foydalaniladi. Bu jarayonda ham ma'lum madaniyatga xos lingvomadaniy birliklar ko'zga tashlanadi:

ALOMAT *Ha, og'izginangdan qoning kelsin sening! Butun o'zbekning dardini dasturxon qilib o'tiribman!” (Sh. Boshbekov. Temir xotin.)*

Dramalarda, ayniqsa, o'zbek dramalarida muhim o'rin tutuvchi er kishini ishga kuzatish, yaxshi so'zlarni aytish, omad va baraka tilash o'rinlari ham madaniy meros sifatida qaraladi: “*Mayli dadasi, yaxshi borib keling*”

Diniy qadriyatlar va e'tiqod shakllari ham madaniy me'ros, an'ana sifatida baholanadi. Qo'rquv, hayajon, shukronalik, hayratlanish bo'lgan o'rinlarda ingliz madaniyatida “cho'qinish” noverbal vositasidan foydalaniladi. Yoki qo'ng'iroqlarning jaranglab tuirishi yakshanba kungi cherkov ibodatlariga chorlovni bildiradi, bu ham ingliz madaniy qiyofasini ko'rsatuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi:

JIMMY *Why don't you? That would be something, anyway. (Crosses to chest of drawers)*

JIMMY *Oh, hell! Now the bloody bells have started! He rushes to the window. Wrap it up, will you? Stop ringing those bells! There's somebody going crazy in here! I don't want to hear them!”*

O'zbek mentalitetida esa, peshonadan o'pish – akaning singil, otaning qizi peshonasidan o'pilishi orqali baxt tilash, qayg'urish, madad bo'lishga ishora qilinadi. Inglizlarda, odatda, peshonadan o'pish o'rta yaqinlik, samimiylik munosabatlariga ishora qiladi:

CLIFF *Lying on the bed. Reading, I think. (Stroking her neck.) That better? She leans back, and closes her eyes again.*

ALISON

Bless you. He kisses the top of her head.

Stereotip – ma'lum bir guruhga nisbatan keng tarqalgan, soddilashtirilgan va zaruriy e'tiqoddir. Guruhlar, ko'pincha, jinsi, irqi va etnik kelib chiqishi, millati, yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, tili va boshqalar asosida stereotiplarga ega bo'lishadi. Stereotiplar ijtimoiy institutlar va madaniyatga chuqur singib ketgan. Ular bolalikning dastlabki bosqichlarida ham namoyon bo'lib, odamlarning bir-birlari bilan qanday munosabatda bo'lishiga bevosita ta'sir qiladi.

Insonlar ongida muntazam o'rnashgan va haqiqat ekanligiga ishoniladigan hodisalar, ya'ni stereotiplar dramalar matnida ham o'z aksini topadi:

CLIFF

Lying on the bed. Reading, I think. (Stroking her neck.) That better? She leans back, and closes her eyes again.

OO'CHQOR

*Olimtoy! Jigarim! Gap mundoq. Shu... (Alomatga qarab qo'yib.) Alomatxonning oldilarida noqulay bo'lyapti-ku..*OO'CHQOR
(erib ketib)*Qarang, vey, odamlar gap qaytarmaydigan xotin yo'q bu dunyoda, deyishadi! Mana! Bu katta xolangmi?*

Yoki:

ALISON (to Cliff)

Let's have a cigarette, shall we? Irons and saucepans—the eternal flaming racket of the female. (“dazmol va tova ayollarning abadiy issiq raketkasi stereotipi”)

CLIFF

Here we are then. Let's have your arm. He kneels down beside her, and she holds out her arms”

Anglashiladiki, madaniy an'analar ijtimoiy va madaniy merosning eng qimmatli elementlari majmuyidir. Madaniy stereotiplar – madaniy hodisalar tizimiga mansub elementlarning o'zaro ta'siri hisoblanib, ular muayyan xalq dunyoqarashidan mustahkam o'rin olgan va haqiqatligiga ishoniladigan tushunchalar sifatida tan olinadi.

Xulosa. Dramatik asarlarni diskursiv o'rganish, dramalar personajlari tilining nutqiy xoslanishi, muloqot jarayonida adresant va adresatning bir-birini tushinishi, muloqotdan tashqari tinglovchilarning interpretatsion qobiliyati hamda ushbu zanjirni bog'lab turuvchi nutq akti nazariyasi tadqiqi bugungi kunda qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Lingvokulturologiyada madaniyatlararo teatr nazariyasi (Patris Pavis, 1996), ya'ni qum soati modeli madaniyatlararo teatr spektaklida manba madaniyati (qum soatining yuqori qismi) pastga qarab maqsadli madaniyat(pastki qism)ga tushishini ifodalaydiki, bunda *manba madaniyati* maqsadli auditoriya uchun notanish madaniyatni anglatadi. Maqsadli auditoriya maqsadli madaniyat a'zolaridan iborat. Manba madaniyati maqsadli auditoriyaga qarab harakatlanar ekan, u bir nechta filtrlardan o'tadi, demak, antropologik

kodifikatsiya, adaptorlar nuqtayi nazari, aktyorlarning tayyorgarlik ishlari va teatr shaklini tanlash ham shunga muvofiq tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология (теория и методы). — М.: Изд-во РУДН, 1997.
2. Волкова Т. Н. Лингвопедагогическая культурология, ее предмет и место в системе научного знания // Новое в преподавании русского языка в школе и вузе. Изв. ГУ. — Иваново, 1998. — С. 168-170.
3. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. — М.: Флинта: Наука, 2013. — С. 10.
4. O'sha kitob (Сабитова З.К.). — Б. 9.
5. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. — В.: Воронежского государственного университета, 1996. — С.104.
6. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. — Тамбов: ТГУ, 2001.— 124 с.
7. Хоккет Ч. A course in modern linguistics. — N.Y.: Macmillan, 1958.
8. Lado R. Linguistics across Culture [M]. — Michigan: University of Michigan Press. 1957.
9. Bassnett S., Andre L. Construction Cultures: Essays on Literary Translation [M]. — Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001.
10. Телия В.Н. Культурная семантика и её отражение в языке // Вопросы языкознания, №5. — 1995. — С. 38-47.
11. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. — М.: Академия, 2001. — С. 208.
12. Rommes E. Gender Sensitive Design Practices. In Trauth, E. (Ed.), Encyclopedia of Gender and Information Technology. — Hershey: Idea Group Publishing, 2006. — P. 675-681.

Ajlinivaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
NMPPI
1934